

Kuchmurodova Nigina

ToshDSHU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning serqirra ijodkori, tarixshunos, tarjimon, shoir, jamoat va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiyining asarlari mamlakatimiz O'zbekiston bo'y lab o'rganilishi, olib borilgan va borilayotgan tadqiqotlar, ogahiyshunoslik faoliyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ogahiyshunoslik, adabiyot, tarjimashunoslik, tarjima, xronologiya.*

O'zbekiston – sharq adabiyoti markazi va maskanidir. Bizning diyorimiz buyuk allomalar, ulamo – yu shoirlar, yozuvchi va olimlar yurtidir. Mamlakatimiz o'zining boy adabiy merosiga ega bo'lib, jahon adabiyoti durdonalarining salmoqli qismini tashkil qiladi. Sharq mumtoz adabiyoti deganda Navoiy, Fuzuliy, Lutfiy, Muqimiya kabi buyuk mutafakkirlar ko'z oldimizga keladi. Ularning adabiyot xazinasiga qo'shgan hissalariulkandir. Mana shunday olimlardan biri, XIX asrning yorqin vakili Muhammad Rizo Ogahiy o'zbek adabiyoti gulshanida o'chmas iz qoldirgan yulduzdir.

Muhammadrizo Ogahiy (1809-1874) Markaziy Osiyo tarixida eng sermahsul ijodkorlardan biridir. U tarixchi, shoir va tarjimon sifatida oltita tarixiy asar, bitta devon va o'n to'qqizta tarjimani meros qilib qoldirgan. Ogahiy Xiva xonligi Qo'ng'irotlar sulolasining fors tilidan turkiy tilga tarjima qiluvchi tarjimonlar maktabi peshqadami edi. U ijodini fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishdan boshlagan va mahorati oshib borgan sayin badiiy asarlarni nazmdan nasrga o'girgan. Bugungi kunga kelib Ogahiy hayoti va ijodining salmoqli qismi yaxshi o'rganilgan. Ammo adibning tarjima asarlari hamda tarixiy asarlarini zamonaviy talablar asosida tadqiq qilishga ehtiyoj sezilmoqda. Ogahiyning she'rлari ham hali to'laligicha o'rganilmagan. "Hali bu xassos san'atkoring lirik va liro-epik tasvir usullari, uning rang-barang she'riy san'atlardan bezavol badiiy obidalar yaratishda foydalanish mahorati, Ogahiy aruzining o'ziga xos qirralari, shoir asarlarining ohanglar jilosи sirlari zarur darajada yoritilganicha yo'q".²²

Akademik G'afur G'ulom "Mamlakatimizning boshqa xalqlari kabi, o'zbek xalqi ham o'zining asrlar davomida yaratilgan boy, o'ziga xos madaniyatiga ega. Bu yerdan fan, adabiyot va san'atning qator ulug' arboblari yetishib chiqqanlar. Shuni aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda hech qanday asossiz Lutfiy, Otoyi, Sakkokiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Munis, Ogahiy, Feruzlarning ijodi o'rganilmayotir, biz faqat Navoiy, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Avaz kabi shoirlar ijodini o'rganish bilan cheklanib qolganmiz" – degan edi. Shundan keyin "Ogahiyshunoslik" fani vujudga keldi, 1958-yilda Xivaga Toshkentdan Subutoy Dolimov kelgan. 1959-yilda G'afur G'ulom, Ibrohim Mo'minov,

²² Anvar Xojahmedov.Ogahiy dahosining olmos qirralari.Nº3.;1999

Qori Niyoziy, Zulfiya, Uyg'un, Ayyomiy, Subutoy Dolimov, Egam Rahim, Quvomiddin Munirov kelgan. Ogahiy va Munis qabrlari Qiyot qishlog'idagi Shayx Mavlono Bobo mozoridan Subutoy Dolimov, E.Samandar va O.Pirnazarovlarning hamkorligi asosida topiladi. Shundan keyin Ogahiy bog'i, qabri tiklandi. Shu damdan boshlab Ogahiy ijodini chuqur o'rganish, tadqiq qilish boshlanadi.

Filologiya fanlari doktori Subutoy Dolimov Ogahiy hayoti va ijodiga katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Subutoy Dolimov 1962-yilda "Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va ijodining mahsuldarligi hamda asarlarining badiiy go'zalligi nuqtai nazaridan Ogahiy o'zbek adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiydan keyingi eng zabardast vakili, degan ilmiy xulosaga keldi. 1970-yilda Subutoy Dolimov va professor G'ulom Karimov hamkorlikda Ogahiyning 6 jildlik asarlar majmuasini nashrga tayyorlashga kirishib, bu ishni 1980-yilda muvaffaqiyatli tugatdilar. Majmuuning 1-2 jiddlari Ogahiyning lirik devoni "Ta'viz ul oshiqin"ni, 3-4 jiddlari shoirning tarjima asarlarini, 5-6 jiddlari esa Ogahiyning tarixiy asarlarini o'z ichiga oladi. 1991-yilda Subutoy Dolimov Ogahiy tomonidan tarjima qilingan Kaykovusning "Qobusnomá" asarini tabdil qilib, nashrga tayyorlagan.

Ogahiy haqida izlanishlar olib borgan keyingi iqtidorli olim Nuryog'di Toshevdir. Nuryog'di Toshev "Jome ul-voqeoti sultoniy"ning Toshkent nusxasi: "Ogahiy dastxatimi?" maqolasida: "Muhammadrizo Ogahiy haqli ravishda eng sermahsul va serqirra qalamkashlar qatorida e'tirof etiladi. U yirik she'riy devon va tarixga oid 6 ta asar bitgan, bundan tashqari, 19 ta badiiy, tarixiy va boshqa janrlardagi asarlarni fors tilidan, bitta asarni usmonli turk tilidan eski o'zbek tiliga o'girgan. Sanalgan 27 ta asardan 23 tasi ko'plab nusxalarda bizgacha yetib kelgan", deb yozadi. Xiva xonligi tarixnavisligi bo'yicha mutaxassis Nuryog'di Toshev Ogahiy tarixiy asarlarini yozishda xat yozishmalardan ham foydalanganligini qayd qiladi hamda Xivaning tarixiy xronologiyalarida mirob atamasi, ko'pincha, harbiy ish va kampaniyalar munosabati bilan tilga olinganligini ham aniqlaydi. Bundan tashqari Toshev Ogahiy umri oxirigacha miroblik vazifasida qolgan deb, asos sifatida beshta dalil ham keltirib o'tadi. Yirik olim Yu.Bregel Ogahiy tarjima asarlarining yillar ketma-ketligini aniqlashga qiynalgan edi. Ammo ogahiyshunos olim Toshev bu xronologiyani shoir o'z devonida ketma-ketlikda bergenini aniqlagan.

Jumaniyoz Sharipov, Subutoy Dolimov, G'aybull Salomov tadqiqotlari Ogahiy ijodini o'rganish tamaltoshi hisoblansa, Vahob Rahmon, Najmuddin Komilov singari yirik olimlarimiz tomonidan tarjima nazariyasining umumiyl xususiyatlari va qonuniyatlarini tavsiflangan.

Rahmat Majidiy "Ogahiy lirkasi" (1963) asari bilan, Quvomiddin Munirov "Xorazmda tarixnavislik" asari orqali, Jumaniyoz Sharipov "Xorazm" tetralogiyasi bilan, Anvar Xojiahmedov "Ogahiy dahosining olmos qirralari" asarlari orqali ogahiyshunoslik faoliyatiga ulkan va sezilarli darajada hissa qo'shishdi.

Ogahiyning tarjimachilik borasidagi mahorati xususida ko‘p yozilgan, hali ko‘p yoziladi. Ayniqsa, filologiya fanlari doktori, ogahiyshunos olim professor Najmuddin Komilov tadqiqotlari benihoya ulkan tafsinga loyiq. U kishi Ogahiy tarjimalarini asl nusxalar, boshqa tarjimalar bilan solishtirib, hazrat iqtidoriga, qoyil qolib, nihoyatda yuksak baho bergen. Komilovni Ogahiyning tarjimonlik faoliyatini ipidan ignasigacha o‘rgangan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, professor Komilov nafaqat nomzodlik, balki doktorlik dissertatsiyasini ham hazrat Ogahiy ijodiga bag‘ishlagan ustoz hisoblanadi. Ogahiyning tarjimonlik mahoratiga Najmuddin Komilov “Asliyatdagi mukammallik va ravshanlikni, tarjimada sodda, aniq va tushunarli bera olgan” - deya ta’rif beradilar. Ogahiy tarjimasining 3 ta qo‘lyozmasi ma’lum bo‘lib, 2019-yilda asarning yana bir qo‘lyozmasi aniqlandi. Yetuk olimlarimiz Vahob Rahmon va Najmuddin Komilovning ilmiy ishlarida Ogahiyning aynan shu tarjimasi to‘g‘risida batafsil ma’lumot beriladi va shoirning mahorati yuksak baholanadi. Xiva xonligida ulkan vazir bo‘lgan Ogahiy Sovet hukumati davrida tadqiqot uchun tavsiya qilinmagan edi. Aynan Komilov jasorati bois O‘zbekistonda Ogahiy ijodi keng tadqiq va targ‘ib bo‘ldi. Komilovni o‘limidan bir kun oldin borib ko‘rganida Suyima opa Ogahiy haqida suhbatlashganini aytadi. “Najmuddin bilan biz so‘nggi bor gaplashganda so‘zni Ogahiydan boshladi. Najmuddin Ogahiy ijodini o‘rgangan. U paytda bu keng ma‘noda ham g‘oyaviy jihatdan, ham badiiy jihatdan o‘rganish u qadar kun tartibiga qo‘yilmagan edi. Najmuddin ana shunday narsani bo‘yniga olgan edi” - deydi Suyima G‘aniyeva.

O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning “Ogahiyning g‘azaliga muxammasi muloqot” she’ridan quyidagi satrlarni o‘qiydi:

*Birdan tilimni tishladim, izza boqib yon-vergakim,
Darkormi so‘z ustozlaring so‘z aytmagan bir yerdakim,
Bor jur’ating, yozgin Omon, yurting ovozin she’rgakim,
Ne jur’at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim.
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zoru noshod ustina!*

Buyuk dotsent, taniqli tarjimashunos Xayrullo Hamidovning “Ogahiyning tarjimonlik faoliyati (Jumaniyoz Sharipov tadqiqotlari asosida)” nomli ilmiy risolasi ham yosh tarjimashunoslari, ogahiyshunoslari uchun asosiy qo‘llanma sifatida xizmat qilyapti.

Hozirgi kunda Muhammad Rizo Ogahiy faoliyatini o‘rganuvchi yoshlar, ogahiyshunoslari, talabalar ko‘paymoqda. Mamlakatimiz bo‘ylab Ogahiy faoliyatini o‘rganish tadqiq qilish uchun turli ma’naviy-ma’rifiy tanlovlari bo‘lib o‘tmoqda. Hozirgi yoshlarni serqirra ijodkor faoliyati bilan yanada ko‘proq tanishtirish uchun Ogahiy nomidagi məktəb, davlat stipendiyalari, ko‘krak nishoni joriy qilingan. Adiblar xiyobonida Muhammad Rizo Ogahiy haykali o‘rnatalgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak , mamlakatimiz miqyosida Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganish, tadqiq qilish borasida muayyan ishlar qilindi va qilinib borilmoqda. R.Majidiy, S.Dolimov, A.Qayumov, Q.Munirov, F.G‘anixo‘jaev, A.Abdug‘afurov, I.Haqqulov, N.Komilov, H.Abdullahayev, N.Jabborov, N.Toshev kabi o‘nlab taniqli olimlar, adabiyotshunoslar yaratgan risolalar, monografiyalar alohida diqqatga molikdir. Istiqlol tufayli bu xayrli ish ko‘lami yanada kengaydi. Bugungi kunda, yaratilgan imkoniyatlар tufayli olimlar, adiblar, ayniqsa yosh tadqiqotchilar Ogahiy hayoti va ijodini chuqr tahlil qilishga kirishdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Dolimov. Ogahiyning hayoti va ijodi. – T.: 1963.
2. N.Komilov. Ogahiyning tarjimonlik mahorati. – T.: 1970.
3. A.Abdug‘afurov. Muhammad Rizo Ogahiy. – T.: Meros, 1999.
4. Q.Munirov. Xorazmda tarixnavislik. – T.: 2002
5. <http://xorazmiy.uz/oz>
6. <https://arboblar.uz/uz/people/mukhammad-riza-agakhi>